
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
# TIL
# ADABIYOT
# TA'LIM



## Philological research:
## LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

## Филологические исследования:
## ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

**2024/ № 9**

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

## TILSHUNOSLIK

**ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА**
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

**IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH**
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

**BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA**
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

**XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA**
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi ..... 19

**ABDULLAYEV DAVRONBEK**
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida ..... 22

**ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA**
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati ..... 25

**KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA**
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari ..... 30

**НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА**
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари ..... 36

**ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA**
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi ..... 39

**MENGLIYEVA MUNIRA**
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari ..... 42

**МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана ..... 46

# МУНДАРИЖА

**XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH**
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi ..... 50

**ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI**
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar ..... 56

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА**
Понятие и особенности литературного цикла ..... 59

**ТУРСУНОВА НАСИБА**
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир ..... 63

**DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA**
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili ..... 67

**TANGIROV RO‘ZIBOY**
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi ..... 69

**QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA**
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni ..... 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# JAHON ADABIYOTIDA YURISPRUDENSIYA VA SUD JARAYONLARI BADIIY TALQIN ETILGAN ASARLAR TAHLILI

**Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna,**
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqodchisi*

Jahon adabiyotida sud jarayonlari va yurisprudensiya muammolari tasvirlangan ko'plab asarlar mavjud. Jumladan, Lev Tolstoyning «Tirilish», Frans Kafkaning «Jarayon», «Jazo koloniyasi», «Alber Kamyuning «Begona», Aleksandr Dyumaning «Graf Monte Kristo», Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar», Harper Lining «Mazaxchini o'ldirish», Teodor Drayzening «Amerika fojiasi», Gabriel Garsia Markesning «Oshkora qotillik qissasi», Agata Kristining «O'nta negr bolasi», Chingiz Aytmatovning «Qiyomat», «Chingizxonning oq buluti» asarlarida sud, tergov jarayonlari, sudlanuvchi, tergovchi va sudyalar obrazlari yaratilgan.

«Tirilish» romanida voqealar rivojining borishi sud jarayoniga asoslangan. Ayni paytda muallif jamiyatda mavjud bo'lgan turli muammolar, ijtimoiy adolatsizlik, sud qatnashchilarining axloqiy, ma'naviy qiyofasi, xalq ichida shakllanib kelayotgan ijtimoiy kuchlarni harakatga undagan omillar, shuningdek, vijdon amriga quloq tutib, poklanish yo'liga o'tishga hech qachon kech bo'lmasligi badiiy idrok etilgan.

Frans Kafkaning «Jarayon» romanida hech bir sabab ko'rsatilmagan holda uzoq davom etilgan sud jarayoniga tortilgan Yozef K. ismli shaxsning hayoti, ko'rgan-kechirganlari va fojiali o'limi aks etgan. Sud devonxonasi bilan tanishuv, advokat Guld bilan uchrashuv, sud maslahatchisining xotini va talaba bilan suhbat, fabrikachi, rassom bilan bahs, advokatni rad etish, o'lim hukmining ijro etilishi hodisalari asosida sirli jarayonning murakkab mohiyati aks ettirilgan.

«Jinoyat va jazo» qahramoni Raskolnikovning kampirni o'ldirishi, uning o'z jinoyati sababini o'z ongida asoslashga urinishi, oliy maqsadlar yo'lida kishilarni bemalol qurbon qilish mumkinligi haqida o'ylashi, o'z da'volarining haqligini tarixiy voqealar bilan isbot qilmoqchi bo'lgani, so'roq paytida tergovchining yuqori saviya va yuksak farosat bilan savollar bergani, insonning o'z-o'ziga beradigan ruhiy-psixologik jazosi sud mahkamalarida beriladigan jazolardan og'ir ekani muallif tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Chingiz Aytmatovning «Chingizxonning oq buluti» qissasida sobiq KGB tergovchisi Tansiqboyev shon-shuhrat ilinjida tuhmat va turli bahonalar bilan hibsga olingan Abutolib Quttiboyevni muvaffaqiyat bilan fosh etishga urinadi. Asarda 50-yillar boshlaridagi Stalin qatag'onining dahshatli oqibatlari o'z aksini topgan. Qissada alohida ahamiyat kasb etuvchi Chingizxon oq buluti haqidagi hikoya bevosita jamiyat taqdiriga aloqador turli masalalarga diqqatni tortadi. Muallif Chingizxonning oq bulutdan ayrilib, baxt-omaddan judo bo'lganini ta'kidlash orqali sovet davlati ham adoqsiz zulm, shafqatsiz qatag'onlar tufayli o'z omadi va istiqbolidan mosuvo bo'lganini anglatmoqchi bo'ladi.

Lev Tolstoyning «Tirilish» romani jahon adabiyotidagi sud jarayonlari va yurisprudensiya muammolari aks ettirilgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Roman 1899-yilda yozib tugallangan. XIX asr oxirida rus jamiyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, sud huquq idoralari va xalq o'rtasidagi murakkab munosabatlar asarda mahorat bilan tasvirlangan.

Dunyo adabiyotshunosligida «Tirilish» romani turli aspektlarda atroflicha tadqiq etilgan. Rus adabiyotshunosi Oksana Vinogradova «L.N.Tolstoyning «Tirilish» romanida mifologik motivlar va mifik obrazlar sistemasi» dissertatsiyasida[1] asardadagi tanatologik, soteriologik hamda esxatologik motivlar xususiyatlarini o'rgangan. Dissertatsiyaning I bobida sud motivi tadqiqiga o'rin berilgan. Adabiyotshunos bu motiv haqida ilmiy xulosalarini bayon qilar ekan, masalaning diniy, axloqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, u sudning xristian ta'limotining muhim amaliyoti ekanini ta'kidlab, uni Tangri sudi va insoniy sud shaklida tasnif etilishini qayd etadi.

1861-yilda krepostnoylik huquqining bekor qilinishi Podsho Rossiyasida ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun yetarli bo'lmadi. XIX asr 80-yillaridan Plexanov boshchiligidagi ishchilar haq-huquqlari uchun kurashishni maqsad qilgan ijtimoiy harakatlar joriy vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishni maqsad

[1] Виноградова О. Система мифологических мотивов и мифообразов романа Л.Н.Толстого ''Воскресение'': Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2021.

qilgan ilg‘or ziyolilarda umid hislarini paydo qildi. Ayni shu jarayonda ishchilar harakatini ta’qib ostiga olish, ularning a’zolarini yoppasiga qamash amaliyoti joriy qilindi. Ulug‘ yozuvchi va ziyoli Lev Tolstoy bu jarayonga befarq qarab tura olmas edi. Bu holat romandagi mahbuslar bilan liq to‘lgan kameralar, Vera Yefremovna, Shustova singari personajlar qismatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda buyuk adibni sud-huquq tizimi faoliyatining ilmiy-nazariy, mantiqiy asoslari qiziqtiradi.

Tolstoy sudyalar chiqarayotgan aksariyat hukmlarning mantiqsiz va adolatsiz ekaniga, jazoning muammolar yechimi bo‘la olmayotganiga e’tibor qaratadi. Huquq idoralari xodimlari ham ba’zan bevosita, ba’zan bilvosita bu fikrning to‘g‘ri ekanligini e’tirof etaveradilar.

«– Sababi shuki, men har qanaqa sudni faqat befoydagina emas, balki g‘ayriaxloqiy narsa deb bilaman.

– Hm, – dedi prokuror hamon boyagiday sezilar-sezilmas jilmayib. Bu tabassum bilan u, bunday gaplar menga ma’lum, kulgili narsa demoqchi edi»[1].

Adabiyotshunoslar «Tirilish» romanining yozilish tarixi haqida fikr yuritganda Tolstoyning asarni yaratishdan avval sohaga oid tugal va umumiy xulosalarga ega bo‘lish uchun sud-huquq tizimi faoliyati haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar bayon qilingan ellikdan ziyod kitoblarni o‘qib-o‘rganganini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari o‘zining so‘nggi romanida to‘laqonli ijodiy kamolotga erishgan ulug‘ yozuvchi Gegel, Kant, Spenser, Shopengauer, Volter singari g‘arb faylasuflari g‘oyalarining eng ijobiy tajribalaridan foydalangan. Asar epigrafi sifatida Injilning afv va kechirim haqidagi oyatlari tanlanishi qalban, ruhan poklanishga hech qachon kech bo‘lmasligi, g‘aflatda bo‘lgan odam qalbi uyg‘onib, Nexlyudov singari «tirilganida» muruvvat va insoniylik ko‘rsatib, ojizlarga marhamat qo‘lini cho‘zishi mumkin ekanligiga ishoralar qiladi.

Asar nihoyalanib borayotganda qamoqxonaga kelgan inglizning mahbuslarga «Injil» tarqatishi, Nexlyudovning ham muqaddas kitob mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘lishi nafaqat ular, balki boshqalar uchun ham poklanish yo‘li oldinda ekani, bu yo‘lda bo‘lishni istaganlarni Tangri yorlaqab, o‘z marhamatiga musharraf qilishini anglatishga xizmat qiladi. Shu maqsad yo‘lida Nexlyudov bu kitobni o‘qib, uning mazmun-mohiyatini anglashga intilar ekan, (kitobning asl holda saqlanmagani, matniga o‘zgartirishlar kiritilgani sababli) undagi ayrim nomuvofiqlik va mantiqiy nuqsonlarga e’tibor qaratadi. Bu jarayonda Tolstoyning xristian dini falsafasiga nisbatan tanqidiy qarashlari namoyon bo‘ladi. Jahon adabiyotida muqaddas kitob va din falsafasi bu qadar teran mantiqiy talqin va tahlil qilingan asarlar u qadar ko‘p emas.

Romanning kompozitsion qurilishida Maslova ustidan o‘tkazilgan sud jarayoni asos qilib olingan. Bu asos bir vaqtlar Maslovaning e’tiboriga va mehriga sazovor bo‘lgan Nexlyudovning o‘tmishi, buguniga aloqador bo‘lgan hislari hamda qarashlariga teran nazar tashlashga imkon beradi. Maslovaning ishini ko‘rib chiqish jarayonida sud idorasining faoliyati, sudya va sud maslahatchilarining hatti-harakatlari, axloqi, dunyoqarashi mukammal tasvirlanadi. Raislik qiluvchi sudya sud ishini mufassal ko‘rib chiqish haqida o‘ylamasdan, balki mehmonxonada o‘zini kutayotgan ayol Klara Vasilevnaning yoniga borish uchun majlisni tezroq yakunlashni hohlaydi. Sud a’zosi Matvey Nikitich jarayon mohiyatiga beparvo bo‘lib, ertalab xotini bilan janjallashgani haqida o‘ylaydi. Uning xayolini sud zalidagi gap-so‘zlar emas, maishiy masalalar band qilgan. Prokuror yordamchisi majlisdan bir kun avval uxlamagan, aroq ichib, sudlanuvchi Maslova bir vaqtlar qo‘nim topgan islovotxonaga ko‘ngil yozish uchun borgan va shuning uchun zaharlash haqidagi ishning mazmuni bilan tanishib chiqmagan. Sud ishini yurituvchilarning mas’uliyatsizligi va inson taqdirini nazar-pisand qilmay o‘yinchoq qilishining oqibatlari keyinchalik Nexlyudov tanishgan qamoqxona manzaralarida namoyon bo‘ladi.

Nexlyudovning Maslova ahvolidan boxabar bo‘lishga intilishi Maslova vositasida boshqa mahbuslar taqdiri bilan tanishishga, asar badiiy g‘oyasini turfa kishilar hayotini tasvirlash vositasida aks ettirishga imkon beradi. Romanning ayrim o‘rinlariga e’tibor qaratib, sud-huquq tizimi va yurisprudensiya masalalari, jamiyat uchun og‘riqli bo‘lgan muammolar, davlat va huquq munosabatlari haqida xulosalarga ega bo‘lish mumkin. Suddagi so‘roq jarayonida sudya Maslovadan ishratxona haqida so‘raganida «Qanaqaligini o‘zingiz bilasiz-ku» degan javobni oladi. Islovotxonalarga tez-tez borib turgan, eshitgan gapidan mulzam bo‘lib, yerga qarab qolgan raislik qiluvchi sudya ishratxonada majburan umr o‘tkazgan Maslovadan ma’naviy jihatdan ustun emas.

Asarda ko‘p asrlardan buyon sud amaliyotida uchraydigan holat – mayda jinoyatlarning oqibatlariga dahshatli tus berish, mayda o‘g‘irlik va tartibbuzarlik bilan qo‘lga tushgan nochor ayblanuvchilarni ashaddiy jinoyatchi sifatida badnom qilishga intilish hodisasiga duch kelish mumkin. Prokuror o‘rinbosari 3 so‘m 67 tiyin turadigan keraksiz, eski gilamni mast holatda o‘g‘irlagan yigitni og‘ir jazoga hukm qilishga urinaveradi. Gilam egasi da’vodan voz kechganiga qaramay, yigitning ahvoli aslo yengillashmaydi. U jinoyat qilishni maqsad qilgan emas. Balki «… ana shunday odamlarni yetishtiradigan muhitda yasha-

[1] Толстой Л.Н. Тирилиш. – Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 168..

gani uchungina jinoyatkor bo‘lgan…»[1]. Nazarimizda, prokuror o‘rinbosari jamiyatga haqiqatan ham xavf solishi mumkin bo‘lgan katta o‘g‘rilarni javobgarlikka tortishga kuchi yetmasligiga amin bo‘lib, o‘z kuch g‘ayratini ojiz, mayda o‘g‘rilarni jazolashga sarflaydi.

**Rezyume**. Ushbu maqolada jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud jarayonlarining badiiy talqini keng ko‘lamda o‘rganildi. Adabiyot asarlarida sud va adolat masalalari, insoniy axloq va ijtimoiy muammolar o‘rganilib, mualliflar tomonidan kuchli tasvirlar va chuqur fikrlar bilan bayon etilgan. Ushbu asarlar orqali adabiyot nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy va etnik masalalarni yoritishdagi o‘rnini ham namoyon etadi. Shu bilan birga, adolat, insoniylik va axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritish imkonini beradi, bu esa zamonaviy jamiyat uchun juda muhimdir.

**Резюме:** Статья анализирует художественные интерпретации судебных процессов и юриспруденции в мировой литературе, подчеркивая произведения Толстого, Кафки, Камю, Достоевского и других, исследующих справедливость и мораль.

**Resyume:** This article analyzes artistic representations of legal proceedings and jurisprudence in world literature, highlighting works by Tolstoy, Kafka, Camus, Dostoevsky, and others that explore justice and morality.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA O‘ZBEK XARAKTERINING BADIIY IFODASI

**Tangirov Ro‘ziboy,**
*Termiz iqtisodiyod va servis universiteti tadqiqotchisi*

Dunyo adabiyotshunosligida “badiiy xarakter” masalasi haqidagi qarashlar uzoq yillik tarixga ega. Agar mazkur terminning adabiyotshunoslik sohasida qo‘llanishiga va bu hodisaning yozma adabiyotga ta’sirining o‘ziga xosligini, badiiy adabiyotga ta’siri masalalasida fikr yuritsak, juda uzoq tarixiy genezis ko‘zga tashlanadi. Adabiyot paydo bo‘libdiki, unning asosida xarakter yaratish san’ati birlamchilik ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyot bizga turmushni o‘rganadigan qurol bo‘lib xizmat qiladi. Unda insonning yashash tarzi, o‘ziga xos fazilatlari, psixologiyasi, orzu-umidlari obrazli tasvirlanadi. “Yozuvchi turmushni fakt va hodisalarni o‘rganadi, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Ana shu xulosalarni jonli obrazlar vositasida ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyot dunyoni badiiy o‘zlashtirishdan iboratdir”[2].

Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o‘ziga xos tarzda kechadi. Shunday ijodkorlar borki, ifoda yo‘sinining betakrorligi, badiiy tasvir uslubining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunoslik, xususan, uning tarkibiga kiruvchi adabiy tanqid o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotida ikki ijodkor – Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayevning xizmatlarini alohida ta’kidlab ko‘rsatib keladi. Aslida mazkur yozuvchilar nafaqat hikoya, shuningdek, qissa, roman, drama janrlarida ham samarali ijod qilishgan. Shunga qaramay, bu qalam sohiblari aynan kichik epik janr deb hisoblanadigan badiiy shakl rivojining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini va mavqeini yuksaltirish bo‘yicha e’tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar. Shukur Xolmirzayevning ifodalash tarzi va ifoda yo‘sini Abdulla Qahhorga o‘xshab ketadi. U hikoyalarida kam gapiradi. Asosan, qahra-

[1] Толстой Л.Н. Тирилиш. –Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. Б. –163..
[2] Шарафиддинов О. Адабиёт – ҳаёт дарслиги. – Тошкент, 1981. – В. 7.